



## **AROMATIK KETOALDEGIDLAR VA KETOEFIRLARNING ATSILGIDRAZONLARI QATORIDA TAUTOMERIYA**

**Sardor Aminovich Karomatov**

O`qituvchi, Buxoro davlat universiteti

**Raxmonbek O`tkirjonovich Boltayev**


Talaba, Buxoro davlat universiteti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada benzoy kislota hosilalari asosida turli 3d-metallardan Ni(II), Cu(II), Zn(II) ionlarining aralash ligandli kompleks birikmalarining tuzilishi va xossalari zamonaviy fizik kimyoviy tadqiqot usullari yordamida tadqiq qilingan. Olingan turli xil mono- va bidentat ligandlarning kompleks hosil qilishi xususiyati, geometriyasi va fizik-kimyoviy xossalari o`rganilgan.

**Kalit so‘zlar:** benzoy kislota, benzoy kislota hosilalari, aralash ligand, monodentat ligand, bidentat ligand, kompleks birikma, infraqizil spektroskopiya, simmetrik va asimetrik tebranish chastotasi, valent tebranish, kvant-kimyoviy hisoblash, molekulyar orbital, bo’shashtiruvchi molekulyar orbital energiyasi.

Keto-yenol muvozanatga ega bo‘lgan  $\beta$ -dikarbonil birikmalar tautomer sistemalar orasida azalgi yetakchilardan biri hisoblanadi. Oxirgi yillarda olimlarning diqqati *trans*-yenol shaklning paydo bo‘lishiga, ichki xelat yenol-yenol muvozanatga, yenol shakllarning o-atsil hosilalari allotropiyasi muammolariga qaratilmoqda. Oksidlangan uglerod atomlari orasida joylashgan – CH<sub>2</sub>- guruhi, boshqa organik ligandlardan farqli o‘laroq, N-atomlarining yuqori harakatchanligi va CH-kislotaning xossalari ega bo‘ladi. Aralash  $\beta$ -dikarbonil birikmalarning atsilgidrazonlari RCOCH<sub>2</sub>COC<sub>6</sub>H<sub>4</sub>X uchun halqa-zanjir muvozanatning mavjud bo‘lishi xarakterlidir, unda 5-gidroksipirazolin halqa shaklda, gidrazon yoki yengidrazin shakl esa ochiq tautomer ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Bunday o‘zgarishlar qonuniyatlarining o‘rganilishi ularning fizik-kimyoviy xossalari talqin qilish uchun zarurdir [12, 13].


Mualliflar ta’kidlashicha, reaksiya metanolda -10°C da o‘tkazilganda, 1:1 molyar nisbatdagi aroil sırka aldegidlarning (1-6) gidrazid (7) bilan o‘zaro ta’sirlanishi C=O formil bog‘i bo‘yicha 100%-li regioselektivlik bilan boradi, hosilalar esa (8-13) V yengidrazin shaklda ajralib chiqadi. Kondensatlanish mahsulotlarining (8 – X = NO<sub>2</sub>,



5-sxema

9 – Br) DMSO-d<sub>6</sub>da xona haroratida saqlanishi natijasida yengidrazin **V** va halqali 5-gidroksi-2-pirazolin **S** shakllar ishtirokida halqa-zanjir muvozanati qaror topadi. Elektron donor o'rribosarli hosilalarda (11-13) esa uchta kondensirlangan halqali birikmalarga (14-16) to'liq yoki qisman aylanishi sodir bo'ladi. Bunday aylanish jarayoni bir qator chiziqli va halqali strukturalarning hosil bo'lishi orqali amalga oshadi.

Molekulaning 1,3-dikarbonil qismidagi chetki metil guruhning murakkab efirli (6) yoki triflormetil (7) kabi elektron akseptor guruhga almashtirilishi **A** gidrazon shaklning to'liq ustunligiga olib keladi. Qo'shimcha nukleofillarni saqlovchi aroil kislotalar gidrazidlarining (X = O, NH, S) reaksiyalarida yetti a'zoli halqali geterosikl **S** ishtirokida halqa-zanjir muvozanat mavjud bo'lishi mumkin. 2-Gidroksi- (11) va 2-aminobenzoy (12) kislotalar gidrazidlari bilan (2) birikmaning kondensatlanish mahsulotlari DMSO-d<sub>6</sub> erituvchida **A**<sub>1</sub> va **A**<sub>2</sub> gidrazon shakllari diastereomerlarning aralashmasi sifatida mavjud bo'ladi, 2-merkaptobenzoy kislotaning gidrazidi (13) bilan kondensatlanish mahsulotida esa halqali yetti a'zoli shakl **B** to'liq ustun turadi. (6-sxema).




6-sxema


Triftorasetosirka efirining tegishli hosilalarida (14-16) ham oxirgi mahsulotlarda A<sub>2</sub> gidrazon shakldan A<sub>2</sub> va B shakllar orasidagi halqa-zanjir muvozanatgi o'tilishi kuzatiladi; 2-merkaptobenzoy kislota gidrazid (16) bilan kondentsatlanish mahsuloti uchun yana halqali shaklning (B) to'liq ustunligi kuzatiladi.

Umumiyl formulasi MeOOCCCOCH<sub>2</sub>COC<sub>6</sub>H<sub>4</sub>X bo'lgan aroliplirovino kislotasi efirlari bilan gidrazidlarning reaksiyasi murakkab efir guruhiga qo'shni turgan C=O bog' bo'yicha, aromatik yadroning elektron xossalardan qat'iy nazar 100%-li regioselektivlik bilan amalga oshad. Alifatik qator kislotalar efirlari (1a-f) bilan gidrazidlarning (2a-s) reaksiyasi [18] ish mualliflari tomonidan o'rGANildi. Asosiy nukleofil reagent sifatida ular benzoilgidrazinni (2b) qo'lladilar.

Reaksiya yumshoq sharoitda o'tkazildi, reagentlarning ekvimolyar miqdorlari metil spirtda aralashtirildi. Reaksiyaning tugashi yupqa qatlamlı xromotografiya (YuQX) yordamida qayd qilindi. Erituvchi yo'qotigandan keyin reaksiya mahsuloti YaMR <sup>1</sup>H va <sup>13</sup>C spektroskopiyaga yordamida tahlil qilindi. Tadqiqotlar ko'rsatdiki, azotli nukleofillarga ega bo'lgan ikkita turli C=O bog'larni saqlovchi nosimmetrik 1,3-dikarbonil birikmalar reaksiyasining regiyo'naluvchanligi, ahamiyatsiz deb hisoblangan strukturali tafovutlarda, keskin o'zgarishi mumkin (7-sxema).



Tioglikol kislota gidrazidlarining bir qator aldozalar bilan ilgari ma'lum bo'limgan kondenstalanish mahsulotlarining tuzilishini o'rganish maqsadida [19] ish mualliflari ularning konfiguratsion izomeriyaga uchrasht qobiliyatini hamda tetragidropiran va 1,3,4-tiadiazolin tautomer shakllarda mavjud bo'lish imkoniyatlarini aniqladilar:



Tioglikol kislota gidrazidining aldozalar bilan  $D_2O$  da kondensatlanish mahsulotlarining deyarli hammasida "tetragidropiran-tiadiazin" murakkab tautomer muvozanat qaror topadi, bu esa eritmarda bunday olti a'zoli tautomer shakllarning termodinamik barqarorlagini ko'rsatadi, bundan faqat A tuzilishli ramnoza (III B) mustasno bo'lib, u eritmada ikkita  $\alpha,\beta$ -stereoizomer shaklda uchraydi. Bu birikmalar radioprotektorli preparatlar va kompleks birikmalarning o'z-o'zidan hosil bo'lish jarayonini nazorat qiluvchi nanozarrachalar tuzilishini va o'lchamini boshqaradigan asl metallar kolloid zarrachalarining kompleksonlari sifatida qo'llaniladi [19].



### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Tursunov, M. A., Umarov, B. B., Abdiyev, B. S., & Ganiyev, B. S. (2021). Synthesis, IR, 1H NMR spectroscopy and X-RAY diffraction analysis of benzoylacetic aldehyde aroylhydrazones. *Elementary Education Online*, 20(5), 7246-7246.
2. Umarov, Baqo, et al. "Learning with EPR and IR-A structure of the copper (ii) in formylpinacoline and benzoylacetic aldehyde aroylhydrazones." *Scientific Bulletin of Namangan State University* 1.1 (2019): 37-43.
3. Umarov, B. B., M. A. Tursunov, and V. V. Minin. "Kompleksy s proizvodnymi ketoal'degidov i ketoefirov." (2016).
4. Турсунов, М. А., & Умаров, Б. Б. (2018). Таутомерия в ряду ацилгидразонов этилового эфира 5, 5-диметил-2, 4-диоксогексановых кислот. *Universum: химия и биология*, (3 (45)), 41-44.
5. Tursunov, M. A., B. B. Umarov, and K. G. Avezov. "Copper (II) complexes with aroylhydrazones of ethyl ether 5, 5-dimethyl-2, 4-dioxohexanoic acid." *Development of science and technology. Scientific and technical journal* 2 (2018): 71-75.
6. Турсунов, М. А., et al. "Синтез и кристаллическая структура комплекса никеля(II) с ароилгидразоном этилового эфира 5,5-диметил-2,4-диоксогексановой кислоты." (2020): 78-90.
7. Umarov B. et al. Learning with EPR and IR-A structure of the copper (ii) in formylpinacoline and benzoylacetic aldehyde aroylhydrazones //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – Т. 1. – №. 1. – С. 37-43.
8. Кароматов Сардор Аминович, и мурод Амонович Турсунов. "5, 5,-диметил-2, 4-диоксогексан кислота метил эфирини квант-кимёвий ҳисоблаш." та'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnalni 2.3 (2022): 246-249.
9. Avezov, K. G., Umarov, B. B., Tursunov, M. A., Minin, V. V., & Parpiev, N. A. (2016). Copper (II) complexes based on 2-thenoyltrifluoroacetone aroyl hydrazones: Synthesis, spectroscopy, and X-ray diffraction analysis. *Russian Journal of Coordination Chemistry*, 42(7), 470-475.
10. Кароматов С. А., Турсунов М. А. 5, 5,-диметил-2, 4-диоксогексан кислота метил эфирини квант-кимёвий ҳисоблаш //ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnalni. – 2022. – т. 2. – №. 3. – с. 246-249.
11. Ниёзов Э. Д., Кароматов С. А., Илхомов А. А. У. Модификаторы полимерной акриловой матрицы //Science and Education. – 2020. – Т. 1. – №. 9. – С. 118-128.
12. СА Кароматов, МА Турсунов 5,5-диметил-2, 4-диоксогексан кислота метил эфирини квант-кимёвий ҳисоблаш. Тальим ва ривожланиш таҳлили онлайн. 2022. Т.2. №3. –С. 246-249
13. Умаров Б. Б., Аvezov K. G., Tursunov M. A. Строение и таутомерия ацилгидразонов формилпинаколина //Бухоро давлат университети илмий ахбороти. – 2015. – №. 1. – С. 22-28.
14. Amonovich, Tursunov Murod, Sevinchova Dilobar Nematovna, Avezov Kuvondik Giyasovich, Umarov Bako Bafayevich, Ganiyev Bakhtiyor Shukurullayevich, and Savriyeva Nigina Qahramon Qizi. "Synthesis and ESR Spectroscopy Complexes of Copper (II) with



Acyl-and Aroylhydrazones of Methyl Ester of 5, 5-Dimethyl-2, 4-Dioxohexanoic Acid." American Journal of Heterocyclic Chemistry 6, no. 2 (2020): 24-29.

15. Umarov B. B. et al. Synthesis and crystal structure of nickel (II) complex based on 2-trifluoroacetylcyloalkanone benzoylhydrazones //Russian Journal of Coordination Chemistry. – 2014. – Т. 40. – №. 7. – С. 473-476.
16. Tursunov, M. A., B. B. Umarov, and K. G. Avezov. "Copper (II) complexes with aroylhydrazones of ethyl ether 5, 5-dimethyl-2, 4-dioxohexanoic acid." Development of science and technology. Scientific and technical journal 2 (2018): 71-75.
17. Авезов К. Г., Умаров Б. Б. Комплексы меди (II) на основе бензоилгидразонов ароилтрифторацетилметанов: синтез, ИК, ЭПР спектроскопия и PCA //Universum: химия и биология. – 2017. – №. 2 (32). – С. 39-44.
18. Умаров, Б. Б., Авезов, К. Г., Турсунов, М. А., Севинчов, Н. Г., Парпиев, Н. А., & Александров, Г. Г. (2014). Синтез и кристаллическая структура комплекса никеля (II) на основе бензоилгидразонов 2-трифторацетилциклоалканонов. Координационная химия, 40(7), 415-415.